

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

G‘ARBIY ZARAFSHON TIZMASI SUV HAVZALARI ALGOFLORASIDAGI ASOSIY TAKSONLAR TAHLILI

Tashpulatov Y.SH., dotsent, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Dustov B.S. mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Bugungi kunda dunyoda chuchuk suv resurslarini turli tabiiy va texnogen ifloslanishlardan saqlash, ulardagi biologik xilma xillikni muntazam ravishda monitoring qilib borish, qolaversa, tog‘lardagi suv ekosistemalarini barqarorligini ta‘minlash alohida ahamiyatga ega. Jahondagi zamonaviy kompleks gidrobiologik tadqiqotlar suv havzalarida kuzatilayotgan ekologik o‘zgarishlarni aniqlash, suv havzalarining muhim tarkibi qismi hisoblangan fitoplankton suvo‘tlarning bioxilma xillik dinamikasini kuzatib borish hamda organik moddalar ta‘sirida suvning ifloslanish darajalarini baholashdan iborat.

Kalit so‘zlar: algoflora, taksonlar, etakchi oila va turkumlar.

Аннотация. Сегодня в мире приобретает особое значение охрана ресурсов пресной воды от различных природных и техногенных загрязнений, регулярный мониторинг их биологического разнообразия, обеспечение устойчивости водных экосистем в горах. Современные комплексные гидробиологические исследования в мире заключаются в определении наблюдаемых экологических изменений в водных объектах, мониторинге динамики биоразнообразия водорослей-фитопланктона, которые являются важной частью тела водных объектов, и оценке уровней загрязнения вод под воздействием органические вещества.

Ключевые слова: альгофлора, таксоны, ведущие семейства и роды.

Annotation. Today in the world, the protection of fresh water resources from various natural and man-made pollution, regular monitoring of their biological diversity, and ensuring the sustainability of aquatic ecosystems in the mountains are of particular importance. Modern comprehensive hydrobiological research in the world consists of determining the observed environmental changes in water bodies, monitoring the dynamics of the biodiversity of algae-phytoplankton, which are an important part of the body of water bodies, and assessing the levels of water pollution under the influence of organic substances.

Keywords: algal flora, taxa, leading families and genera.

Zarafshon daryosi o‘rta havzasida turli tipga mansub suv havzalari algoflorasi taksonomik, floristic, ekologik nuqtai nazardan qator olimlar tomonidan o‘rganilgan [1], [2], [3], [4], [5], [6]. O‘rganilgan suv havzalari algoflorasi tarkibidagi asosiy taksonlar hisoblangan oila va turkumlarning tahlili mazkur algofloraning boshqa algofloralardan o‘ziga xosligi hamda shakllanish xususiyatlarini tushunish imkoniyatini beradi. Algofloraning tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, turlarni o‘zaro qamram olish darajasiga ko‘ra shartli ravishda bir nechta sinflarga ajratildi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

20 tadan ortiq turga ega oilalar yuqori polimorf sinfiga, 10 dan ortiq turga ega oilalar polimorf sinfiga, 5-7 tadan turga ega oilalar oʻrtacha polimorf sinfiga, 2-4 turga ega oilalar kambagʻal oilalar sinfiga hamda 1 tadan turga ega oilalar monotip oilalar sinfiga kiritildi. Odatda bundan sinflarga ajratish har bir algofloraning turlar sonidan kelib chiqib, shartli ravishda tanlanadi.

1-jadval

Algoflora tarkibidagi oilalarning umumiy spektri

Oilalardagi turlarning sinflari	Oilalar soni	% da	Oilalar tarkibidagi turkumlar	% da	Oilalar tarkibidagi turlar soni	% da
>20 (yuqori polimorf)	2	3,50	14	14,43	44	20,28
10-16 tur (polimorf)	3	5,27	14	14,43	41	18,89
5-7 tur (oʻrtacha polimorf)	7	12,28	14	14,43	42	19,36
2-4 tur (kambagʻal)	21	36,84	31	31,96	66	30,42
1 tur (monotip)	24	42,11	24	24,75	24	11,05
Jami:	57	100	97	100	217	100

Olingan natijalar tahliliga koʻra tarkibida 2-4 tagacha turlarni birlashtirgan 21 oila algoflora tarkibidagi eng koʻp – 66 turni (30,42%) turlarni birlashtirgan, keyingi oʻrinlarda 20 dan ortiq turni birlashtirgan 2 ta oila jami 44 turni (20,28%), 5-7 turga ega 21 oila 42 turni (19,36%) hamda 10-16 turga ega 3 ta oila jami 41 turni (18,89%) oʻz ichiga olgan. Monotip oilalar 24 tani tashkil etib, jami 24 turga (11,05%) egalik qilgan (1-jadval). Tahlil natijalarimiz algoflora tarkibidagi turkumlarning umumiy tahlilida yuqoridagi yondashuvga asosan quyidagi sinflarga ajratildi: 10 va undan ortiq turga ega turkumlarni yuqori polimorf turkumlar, 8-9 ta turga ega turkumlarni polimorf, 4-7 ta turni birlashtirgan turkumlari oʻrtacha polimorf turkumlarga, 2-3 ta turni birlashtirgan turkumlarni kambagʻal turkumlarga hamda 1 tadan turga ega turkumlarni monotip turkumlarga birlashtirildi (2-jadval).

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

2-jadval

Algoflora tarkibidagi turkumlarning umumiy spektri

Turkumlardagi turlarning sinfi	Turkumlar soni	% da	Turkumlardagi turlar soni	% da
>10 turdan ortiq (yuqori polimorf)	2	2,06	22	10,13
7-9 tur (polimorf)	3	3,09	26	11,98
4-6 tur (o'rtacha polimorf)	12	12,37	55	25,34
2-3 tur (kambag'al)	24	24,74	58	26,72
1 tur (monotip)	56	57,73	56	25,80
Jami:	97	100	217	100

Tahlil natijalariga ko'ra, algoflora tarkibidagi 2-3 turga ega kambag'al turkumlar sinfi yetakchilik qilgan ma'lum bo'ldi, ular jami algoflora tarkibidagi 26,80% turlarni qamrab olgan, 1 tadan turga ega monotip turkumlar sinfi (25,80%) hamda 4-6 turga ega bo'lgan o'rtacha polimorf turkumlar sinfi (25,30%) katta bo'lmagan farq bilan keyingi o'rinlarda turibdi. 8-9 turga (11,98%) ega polimorf va 10 dan ortiq turga ega yuqori polimorf turkumlar sinfi (10,13%) lar turlar soni bo'yicha oxirgi o'rinlarni egallagan. Bundan ko'rinadi, G'arbiy Zarafshon tizmasi suv havzalari algoflorasi tarkibidagi turkumlar xilma xilligi ko'proq ekanligi hamda yaqqol yetakchilik qiladigan turkumlar nisbatan kam tarqalganligi bilan harakterlanadi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Adabiyotlar:

1. Tashpulatov Y. Sh. (2018) Taxonomic analysis of algoflora of the Akdarya reservoir (basin of the Zarafshan river, Uzbekistan). *Hydrobiological Journal*. 54 (1) 49–54. <https://doi:10.1615/HydrobJ.v54.i1>.
2. Shernazarov S.S. and Tashpulatov Y.Sh. (2020) Species Composition of Algae in the Food Tract of Common Silver Carp (*Hypophthalmichthys molitrix* Vab.) in Growing Conditions. *Bulletin of Pure & Applied Sciences- Zoology*. 39(2), 338–343. <https://doi.org/10.48165/>
3. Dustov, B.S. and Tashpulatov, Y.Sh. (2023) Taxonomic Analysis and Ecological Features of the Algal Flora of the Water Bodies of the West Zarafshan Range. *American Journal of Plant Sciences*, 14, 542-551. <https://doi.org/10.4236/ajps.2023.145037>.
4. Kobulova B.B. and Tashpulatov Y.Sh. (2023) Bioresource potential of Phytoplankton of lake Khadicha (Bukhara, Uzbekistan). *IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science* 1138, 012014. <https://doi:10.1088/1755-1315/1138/1/012014>.
5. Tashpulatov Y.S. and Shernazarov S.S. (2021). Formation of algocenoses of fish ponds in connection with the torture of water bodies of the Samarkand region. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12, pp. 814-819. [https://doi: 10.4236/ajps.2023.145037](https://doi:10.4236/ajps.2023.145037).
6. Tashpulatov Y.Sh. and Qobulova B.B. (2017) Ecology of Euglenoids (Euglenophyta) in Middle Flow of Zarafshan River. *The Way of Science*. 2017. № 5 (39) 14-16.